


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Obidjanov	
Laboratoriya mashg'ulotlarining biologiya fanini o'zlashtirishga ta'siri.....	96
M.A.Abduxalilova	
O'quvchilarida ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantirish	100
M.A.Mamasaidova, M.X.Akbaraliyeva	
Boshlang'ich ta'lrim o'quvchilariga ko'paytirish amalini o'rgatishning interfaol usullari	107
G.S.Qosimova	
Tibbiy ta'limga matematik modellashtirish orqali organizmning funksional holatlari va himoya-moslashuv jarayonlarini o'qitish usullari.....	112
S.R.Toshboyeva, L.A.Yusupova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kombinatorika elementlarini o'qitishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar	117
A.A.Мирзалиев	
Пути повышения эффективности системы морально-психологической подготовки и теоретическая модель ее организации.....	121
A.T.Akbarov	
Basketbolning jismoniy rivojlanish va salomatlikni mustahkamlashdagi muhim roli	127
S.M.Sidiqov	
Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish	132
Z.N.Usmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi va tarbiysi jarayonini rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.....	137
S.T.Xakimov, N.B.Komilova	
Umumiylar ta'lim makkablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish (basketbol sport turi misolida)	142
X.T.Xasanov	
Kasb-hunar makkablar o'quvchilarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi xususiyatlari	147
G.K.Yakubova	
Turli yoshdagagi odamlarning har hil sharoit va hududlarda nafas olishini tahlil qilish.....	153
T.T.Yusupov	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun gimnastika mashqlari majmuuni tuzish va uni o'tkazishga qo'yiladigan talablar	158
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixi bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik jihatlari	164
A.M.Maxmutaliyev	
Umumta'lim makkabining boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasi faoliyatida innovasiyalar.....	168
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyasi	173
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik imoniylatlari	178
D.E.Yuldasheva	
Bo'lajak o'qituvchilarida ijtimoiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv modeli	182
L.E.Bobomurodova	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining ma'naviy va kasbiy sifatlariga qo'yilgan talablar	189
G.O'.Yuldasheva	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining pedagogik refleksiyalash qobiliyatini rivojlantirish: komponentlar va ularning ahamiyati.....	194
E.K.Muxtarov	
Kvant mexanikasi fanidan amaliy darslarda masalalarni yechishning metodik jihatlari	194



UO'K: 373.3:371.13+37.017.4

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING MA'NAVIY VA KASBIY SIFATLARIGA
QO'YILGAN TALABLAR**

**ТРЕБОВАНИЯ К ДУХОВНЫМ-ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ КАЧЕСТВАМ ПЕДАГОГА
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL AND PROFESSIONAL QUALITIES OF A
PRIMARY EDUCATION TEACHER**

Bobomurodova Latofat Elmurodovna 

Innovatsion texnologiyalar universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD),
dotsent

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ma'naviy va kasbiy sifatlari bo'lgan zamonaviy talablarni mazmun, mohiyati va hozirgi kundagi muammolari hamda istiqbolli vazifalari xaqida fikr yuritilgan. O'zbek halqi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z-o'zini anglash, milliy mafkurusasi asosida o'z Vatani va xalqiga sodiq bo'lgan, yangi barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Shu sababdan, innovatsion ta'limgarayonida zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi qanday kasbiy qobiliyatlarga, ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritilgan. Innovatsion ta'limgarayonida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining dolzarb muammolaridan biri, bu ijodkor-o'qituvchi shaxsini shakllantirish, davrlashtirish, yaratish, kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish, kasbiy va ma'naviy sifatlarini yanada rivojlantirishdan iboratligi haqida aytib o'tilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены современные требования к морально-профессиональным качествам учителей начальных классов по содержанию, сущности и актуальным проблемам и перспективным задачам. Одной из важнейших задач, стоящих перед узбекским народом, является формирование нового гармоничного поколения, верного своей родине и народу на основе самосознания, национальной идеологии. Поэтому в Инновационном образовательном процессе проводилась мысль о том, какими профессиональными способностями, духовными качествами должен обладать учитель современного начального образования. Одной из актуальных проблем педагога начального образования в Инновационном образовательном процессе является то, что она заключается в формировании, периодизации, создании, совершенствовании профессионально-методического творчества, дальнейшем развитии профессиональных и духовных качеств личности творческого педагога.

Abstract

The article examines the modern requirements for the moral and professional qualities of primary school teachers in terms of content, essence, and current problems and promising tasks. One of the most important tasks facing the Uzbek people is the formation of a new harmonious generation, loyal to their homeland and people on the basis of self-awareness and national ideology. Therefore, in the Innovative Educational Process, the idea was carried out about what professional abilities and spiritual qualities a teacher of modern primary education should have. One of the urgent problems of the primary education teacher in the Innovative educational process is that it consists in the formation, periodization, creation, improvement of professional and methodological creativity, further development of professional and spiritual qualities of the creative teacher's personality.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'limgarayonida, kasbiy sifatlar, ma'naviy sifatlar, ijodiy qobiliyatlar, integratsiyalash, innovatsion yondashuv, zamonaviy o'qituvchi, ta'limi tamoyillar, psixologik qobiliyatlar.

Keywords: innovative education, professional qualities, spiritual qualities, creative abilities, integration, innovative approach, modern teacher, educational principles, psychological abilities.

Ключевые слова: инновационное образование, профессиональные качества, духовные качества, творческие способности, интеграция, инновационный подход, современный учитель, образовательные принципы, психологические способности.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida o'qituvchilik kasbi o'quvchi-yoshlarimizning ma'nан yetuk va barkamol bo'lib o'sishida juda muhim o'rinn egallaydi. Chunki,

o'qituvchilik kasbi kasblar orasida eng faxrlisi va jamiyat uchun nihoyatda zarurlisidir. O'zbek halqi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z-o'zini anglash, milliy mafkurasi asosida o'z Vatani va xalqiga sodiq bo'lgan, yangi barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lism pedagogi zamonaviy ta'lism tizimida alohida o'ren egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ta'lism tizimini takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish masalalari ustuvor vazifalar qatorida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022). Shu bois, boshlang'ich ta'lism o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy sifatlari nafaqat ta'lism sifati, balki yosh avlodning intellektual va ma'nnaviy taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagog kadrlar tayyorlash hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha A.A.Abduqodirov, A.Azizxodjayeva, P.T.Magzumov, N.N.Alimov, Z.K.Ismailova, R.X.Jo'rayev, N.A.Muslimov, N.Sh.Shodiye, Sh.Sh.Olimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov va boshqa pedagog olimlar ilmiy ishlarda bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy sifatlaridagi ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish, ta'limdagi umumnazari va metodologik muammolar, o'quvchilarini bolalik davridan kasb-hunarga yo'naltirish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini aniqlash, kompetensiyalarni shakllantirish g'oyasini joriy etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va metodik ta'minotini ta'minlash bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan

Umumiyo o'rta ta'lism maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunda boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi har bir mavzuning ta'limiyo mazmuniga, tarbiyaviy ahamiyatiga, rivojlantiruvchi maqsadlariga alohida e'tibor qaratmog'i lozim. Shu bilan birgalikda o'quvchilarining yosh xususiyatlari, psixologik holatlari, ulardagi mavjud bilim, malaka, ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini hamda layoqatlariga qarab dars loyihibarini tuzib olishlari nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

"O'qituvchi – bu mazmuni faqatgina bilimlarni yetkazish bo'lgan kasb emas, balki insonni shaxs sifatida shakllantirishdagi muhim ma'sulyatli vazifani bajaruvchidir. Shu bilan birga pedagogik ta'limning maqsadi quydagilarni o'zida ifoda etuvchi yangi tipdagagi o'qituvchi shaxsining rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo'lishi mumkin:

- vatanparvarlik ma'sulyati va ijtimoiy faoliylik;
- bolalarga bo'lgan mehr, ularga o'z yuragini baxshida etishga bo'lgan talab va qobiliyat;
- xaqiqiy ziyolilik, ruhiy madaniyat, o'zgalar bilan ishlashga bo'lgan hohish va qobiliyat;
- yuqori darajadagi kasbiy mahorat, yangi uslubdagagi ilmiy-pedagogik fikrlesh, ijodiy xulosalarni qabul qilish va yangi g'oyalarga tayyorlik;
- doimiy ravishda o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoj va bunga tayyorlik;
- jismoniy va ruhiy sog'lilik, kasbiy bilimdonlik ishonch;
- kasbiy kompetenlik darajalarini rivojlantirishga intilish;
- individual sifat va xislatlarni shakllantirishga bo'lgan extiyojning o'sib borishi va.h.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi shaxsining yo'naltirilganligi muhim o'rinn tutadi. Bu borada o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-axloqiy, kasbiy-pedagogik va ilmiy yo'naltirilganligini ifodalovchi xususiyatlarni ko'rib chiqish mumkin.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talabalar kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik alohida o'rinn egallaydi. U o'zida o'qituvchi shaxsining asosiy kasbiy xususiyatlarini mujassam etadi"

O'quvchilar juda taqlidchan bo'lib, o'qituvchilarini doimo kuzatib yuradilar, ularga o'xshashga xarakat qiladilar. Shu sababdan boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi o'z o'rnida mehribon, odobli, bir so'zli, halol, sof vijdonli, adolatparvar kishi, o'z sohasining bilimdoni, yetuk va barkamol kadr xam bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgandagina u kuzatilgan natijalarga erisha oladi. Bu ko'proq o'qituvchining kuzatuvchanligiga bog'liq. Mahoratli o'zbek o'qituvchisi hayat va jamiyatga ilg'or nazar bilan qarovchi, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida tinimsiz mehnat qiluvchi shaxsdir.

1. Ma'nnaviy sifatlar: pedagog shaxsiyatining ijtimoiy vazifasi

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining shaxsiy namunasi o'quvchilar tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologik va ma'nnaviy shakllanish bosqichida bo'lganligi

PEDAGOGIKA

sababli, o'qituvchining insoniy fazilatlari – halolligi, sabr-toqati, samimiyligi, vatanparvarligi va mehribonligi – bevosita ta'sir ko'rsatadi (Niyozova, 2021).

Ma'naviy sifatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Etik madaniyat – kasbiy faoliyatda axloqiy me'yorlarga amal qilish;
- O'zini tarbiyalash qobiliyati – uzlusiz o'z ustida ishlash va ichki intizom;
- O'zbekiston xalqining milliy va ma'naviy qadriyatlariga hurmat;
- Yuksak vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati.

2. Kasbiy kompetensiylar: zamonaviy pedagogik mahorat

Zamonaviy o'qituvchidan faqat nazariy bilim emas, balki amaliy pedagogik mahorat, texnologik savodxonlik va ijodiy yondashuv ham talab qilinadi. Boshlang'ich ta'linda pedagog quyidagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

- Didaktik kompetensiya – o'quv dasturlarini samarali amalga oshirish, o'qitish metodikalarini puxta egallash (Yuldasheva, 2020);
- Psixologik-pedagogik yondashuv – har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olib ishlash;
- Innovatsion yondashuv – raqamli texnologiyalardan foydalanish, STEAM yondashuvlarini qo'llash;
- Tahliliy va reflektiv tafakkur – o'z faoliyatini baholay olish va takomillashtirish.

Ta'limning davlat standartlari asosida olib borilishi, baholash mezonlariga rioxo qilinishi va natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuv o'qituvchining professional yetukligini belgilaydi.

Innovatsion ta'lif jarayonida zamonaviy boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishi lozim:

- O'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarni mazmunan yaxlitligini ta'minlay olish;
- Axborot texnologiyalari, pedagogik texnolgiyalar, innovatsion ta'lif metodlari haqida chuqur bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lislari;
- O'z mutaxassisligi bo'yicha fanlarni o'qitishda uning mazmuniga mos holda pedagogik tizimni loyihalay olish;
- Rivojlangan mamlakatlar pedagogikasining sohada erishayotgan ilg'or tajribalarini modernizatsiya qilgan holda amalda qo'llash;
- Buyuk mutafakkirlarimizning ma'naviy meroslaridan fanlarda, ta'lif-tarbiya berishda foydalana olish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, zamonaviy boshlang'ich o'qituvchisining kasbiy-ijodiy qobiliyatları haqidagi tasavvurimizni taqdim etaylik.

1. Vaziyatni tahlil qilish.
2. Muammoni bayon etish.
3. Axborot yig'ish.
4. Axborotning tahlili.
5. Ijodiy yechimlar hosil qilish.
6. Tushuncha.
7. Variantlarni tahlil qilish, baholash va toplash.
8. Aniq va ijodiy yechimni tanlash.
9. Kreativlikni joriy etish.

Innovatsion ta'lif jarayonida boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining dolzarb muammolaridan biri, bu ijodkor-o'qituvchi shaxsini shakllantirish, davrlashtirish, yaratish, kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish, kasbiy va ma'naviy sifatlarini yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi o'quvchilarga o'zining kiyinish madaniyati, so'zlashuv nutqi, muomala madaniya, toza-ozodaligi bilan o'quvchilarning badiiy va estetik didini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni darslarda hamda darsdan tashqari hollarda borliqdagi go'zallikni ko'rish, tushunish va qadrlay olish hissini takomillashtiradi. Shu bilan birgalikda, ularda ijodkorlik qobiliyati keng namoyon bo'ladi. Ijodkorlik faoliyati jarayonida boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining mehnatsevarlik, maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, tanqidni to'g'ri qabul qila olish kabi eng oliyanob shaxsiy sifatlar tarkib topadi.

O'qituvchi darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga berilayotgan barcha ma'lumotlar ilmiy bo'lishligi va xususiyatlarga mos bo'lishligini talab etadi. Shu bilan birgalikda borliqdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilishga, uning xarakterli xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganishga ko'rgazmalilik prinsiplaridan foydalanishlari muhim hisoblanadi. Ko'rgazmalilik boshlang'ich ta'lif fanlarida o'quvchilarda tushuncha va tasavvurlar hosil qiluvchi asosiy manbaa hisoblanadi.

O'qituvchi kasbining yana bir muhim jihat shundaki, bu kasb kishiga mammunlik va xursandchilik keltiradi. Bu mammunlik, unga o'z faoliyati natijalarini ko'rganida, ya'ni, shogirdlarini turmushda, ilmu-fan, texnika va ishlab chiqarishda erishgan muvaffiqiyatlarini hamda yuksak cho'qqilarni egallaganliklarini, hayotda o'z o'rinnarini topganliklarini ko'rganida ko'zga yaqqol tashlanadi. Shunda, o'qituvchilar o'z mehnatlarini zoe ketmaganligini his etadir.

O'qituvchilik kasbida iste'dod juda kerakdir. Ya'ni o'qituvchilikda o'z kasbiga mehr, qiziqish, uni egallashga intilish bo'lishi lozim. Bu sifatlar ko'pchilik hollarda o'quvchilarni sevganda, o'quvchilarning shovqin-suronidan, joydiragan ko'zlaridan zavqlangandagina namoyon bo'ladi. Muallimlik iste'dodi uni tug'ma bo'lishligini bildirmaydi. Shunga qaramasdan, u kishilarda yoshligidan, ochiq yoki berk holda paydo bo'ladi. Muallimlik iste'dodi kishilarda o'quvchilar bilan bog'liq xayotiy voqealar zamirida, kishilarning yoshlik chog'larida bo'lishi xam mumkin. Kishilarda bo'ladigan ruhiy bu sifatlar ularni o'qituvchilik kasbiga qiziqtiradi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lif o'qituvchisida quyidagi kasbiy sifatlar namoyon bo'lishi kerak:

- Davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida kundan kunga ro'y berayotgan o'zgarishlar, xalq manfaati uchun olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar;
- Ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari hamda yutuqlaridan xabardor bo'lishlari;
- O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinmay izlanishlari;
- Ta'limiylar va tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil etish.

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi o'zining kasbiy sifatlariga tayangan holda, darslarni hayotga bog'lab o'tishi, bunda, fan-ta'lif, texnika va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida amaliy darslarni tashkil etish, o'quvchilarda fanning ta'sirchanligini oshirish, idrok etish qobiliyatlarini ongli va emotsional ta'minlash, fanlardan yetarlicha kompetensiyalarga ega bo'lishini tizimli ravishda muvofiqlashtirishi muhim.

O'qituvchi faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim yetakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lif tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

Ta'liming quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Ta'lif va tarbiya birligi.
2. Ta'liming ilmiyligi va politexnik xususiyatlarga egaligi.
3. Ta'limda tizimlilik va izchillik.
4. Nazariya va amaliyotning birligi.
5. Yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.
6. Ong'lilik va faollik.
7. Ta'limda ko'rsatmalilik.
8. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.

O'qituvchi "aktyor" bo'lishi lozim deyishadi. Chunki, sinfda turli xil vaziyatlar paydo bo'ladi. O'quvchilar o'rtasida yoki o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida shunday og'ir vaziyatlar bo'lib qolganda, uning aktyorlarga xos xislatlari yordam beradi. O'qituvchi biror bo'lgan yoki bo'lmagan voqeani so'zlaganda, uning faqat nutq bilan emas, hatti-xarakatlari bilan, mimika bilan shunday tushuntirish lozimki, o'quvchilar uning bu gaplariga hech ikkilanmasdan ishonsinlar.

Mohir o'qituvchi o'quvchilarni sevishi, ularga motivatsiyalar bera olishi, kelajakka ishontira olish, darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tashxislash, oldindan bashorat qilish, loyihalashtirish qobiliyatlariga yetarlicha ega bo'lishi kerak. O'qituvchi kasbiy sifatlarining asosini eng avvalo bilim, shu bilan birgalikda, tafakkur, aql-zakovat, tajriba, tushuna olish va tushuntira olish, anglash va

PEDAGOGIKA

anglata olish qobiliyatları alohida o'rın egallaydi. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi dars vaqtida o'quvchilarga ko'proq bilim, tushuncha va malakalar berishda qiyalmaydi. Darsda esa u ko'proq bilimlarni qanday yo'llar bilan, metodlar bilan, didaktik o'yinlar bilan yetkazish haqida o'laydi.

O'qituvchi o'quvchilarni majburlab, zo'rlab, zulm o'tkazish yo'li bilan emas, tushuntirish, ishontirish, pedagogik taktikani saqlagan holda xushmuomalalik bilan ish olib borgandagina, yaxshi natijaga erisha oladi. O'qituvchining mahoratli bo'lishi ko'p jihatdan uning madaniyatli bo'lishiga xam bog'liq. Bunda ko'proq aqliy, ahloqiy, gigienik, psixologik, estetik va boshqa o'qituvchiga xos bo'lgan madaniy tarbiya nazarda tutiladi. Mahoratli o'qituvchi o'z ishiga o'ta talabchan va ma'suliyati bo'ladi, u doimo o'zini muallimlik mahoratini qanchalik uddasidan chiqqanligini tekshirib borishi, o'quvchi ongi va qalbiga yo'l topishiga harakat qilishi kerak bo'ladi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, bir o'qituvchi boshqa bir o'qituvchi metodikasini o'rganib, shu asosda to'liq ish olib borishi mumkin emas. Har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy o'qitish metodikasiga ega bo'lishi lozim. Chunki, o'qitish ishlarida yagona retseptdan foydalanib bo'lmaydi. Har bir ta'lif-tarbiya retsepti har bir tuman, mакtab, o'qituvchining ish sharoiti va o'ziga xos xususiyatlari asosida belgilanadi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining kasbiy va ma'naviy sifatlari uning pedagogik faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shaxsiy namunasi, bilim va ko'nikmalar, professional etikaga rioya qilishi orqali u kelajak avlodni tarbiyalaydi. Shu sababli, bugungi kunda o'qituvchidan yuksak axloqiy mezonlar, uzlucksiz o'z ustida ishlash, zamonaviy metodikalar va texnologiyalardan samarali foydalanish talablari qo'yilmoqda. Bu esa ta'lif tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omildir. O'qituvchi o'quvchi kabi hissiyotga boy bo'lsa yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning qilayotgan ibratli ishlar, yaxshi javoblaridan mammun bo'libgina qolmay, balki, ulardan quvonadi, zavqlanadi, ularga bo'lgan muhabbatni yanada oshadi. O'qituvchilar o'quvchilarni sevib, ularning kamchiliklariga befarq bo'lib qolishlari, ularni haddan tashqari erkabalab, taltaytirib yuborishlari to'g'ri emas. Aks holda o'quvchilarda manmansirash, boshqalarni mensimaslik kabi alomatlar paydo bo'ladi.

O'z ishiga ma'suliyat bilan qaragan har bir o'qituvchi mohir muallim bo'lib yetishishi muqarrardir. Shuningdek, o'qituvchilik kasbi qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, u sharafli kasbdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz.-T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: Darslik.-T.: TDPU Toshkent, 2014
3. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiya", 2008. - 288 b
4. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yonashuv asosida ta'lif jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlatirish tizimi: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. - Toshkent, 2018 y. - 72 b
5. O.A.Qo'ysinov. Ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablar. 2021
6. Choriev A., Choriev I. Pedagogikaning metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari. - Toshkent: Nishon noshir, 2016. - 248 b
7. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'uiotlar - Toshkent, «Fan», -2001. O'quv qo'llanma